

ABDULLA QAHHORNING “PORA” HIKOYASIDA IJTIMOY MUAMMO TALQINI

Altiboyeva Gulsanam

Filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: prof. O.Fayzullayeva

Annotatsiya. *Ushbu maqola mazmunida ozbek hikoyachiligida muhim orin egallagan yozuvchi Abdulla Qahhorning “Pora” hikoyasi o‘zbek adabiyotida korrupsiyaga qarshi ma’naviy kurash, halollik, huquqiy ong kabi muhim tushunchalarni yorituvchi asarlardan biri ekanligi masalasi yoritilgan. Yozuvchi jamiyatda ildiz otgan mansabdorlarning poraxo‘rlik illatini tanqid qiladi va bu illatning oddiy odamlar hayotiga qanday zarar yetkazishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *realizm, satira, korrupsiya, jamiyat tanqidi, badiiy obraz, prototip, ma’naviy inqiroz, ijtimoiy muammo.*

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qahhor inson ruhiyatini chuqur anglash, jamiyatdagi illatlarni keskin tanqid qilish va real hayotni adabiy asarga aniq ko‘chirib bera olish mahorati bilan tanilgan. Uning “Pora” hikoyasi ham yozuvchining realistik qarashlari, jamiyatdagi illatlarni ochib tashlashga qaratilgan asarlari qatorida alohida o‘rin tutadi. Mazkur hikoya o‘zbek adabiyotida korrupsiya, adolatsizlik, mansabni suiiste‘mol qilish kabi ijtimoiy muammolarga bag‘ishlangan eng ibratli badiiy asarlardan biri sifatida baholanadi. Abdulla Qahhor “Pora” orqali oddiy inson hayoti, adolat tizimidagi kamchiliklar va jamiyatning ma’naviy tanazzulga duch kelayotgan jihatlarini o‘tkir satira va real voqealar asosida ko‘rsatadi.

“Pora” hikoyasining markazida korrupsiya muammosi turadi. Yozuvchi jamiyatda ildiz otgan bu illatni badiiy vositalar orqali keskin tanqid qiladi. Abdulla Qahhor o‘sha davrda poraning hayotning turli jabhalariga kirib kelganini, arzimagan ishni ham “qo‘lga qarab” bajariladigan holga aylanganini ochiq ko‘rsatadi. Hikoya nafaqat bir kishining adolat topish jarayonidagi qiyinchiliklari haqida, balki butun tizimning ichki chirigan holati haqida gapiradi. Muallifning asosiy g‘oyasi shundaki, poraxo‘rlik jamiyatni yuksaltirmaydi, balki uning asosini yemiradi. Adolat, halollik, insoniylik kabi qadriyatlar qadrsizlanib, mansabdor shaxslarning o‘z vazifasini vijdonan emas, manfaat evaziga bajarishi jamiyatning ma’naviy inqirozga borishiga sabab bo‘ladi. Abdulla Qahhor o‘z asarlarida real hayotni bosiqlik, aniqlik va teran kuzatuvchanlik bilan tasvirlaydi. “Pora” hikoyasida ham bu jihatlar juda yorqin namoyon bo‘ladi. Hikoyadagi voqealar hayotiy, obrazlar esa real hayotda uchraydigan insonlar prototiplaridan olinganga o‘xshaydi. Yozuvchi satirani o‘tkir tig‘dek qo‘llaydi. Satira orqali u voqeadagi kulgili tuyulgan holatlarning aslida jamiyatga qancha zarar keltirayotganini ko‘rsatadi. Yozuvchi kuldiradi, lekin o‘quvchi bu kulgi ortida og‘riq, armon va achchiq haqiqatni ko‘radi. Bu uning adabiyotdagi buyuk mahoratidan dalolatdir. Hikoya markazida

oddiy, halol, lekin adolatsizlikdan charchagan inson turadi. Uning haq ishlari faqat pora evaziga hal qilinishi mumkinligi voqeaning fojiali jihatlaridan biridir. Bu obraz orqali yozuvchi oddiy xalqning dardi, huquqsizligi va tizim oldida ojiz qolgan holatini yoritadi.

Asardagi pora oluvchi obrazlar shunchaki yomon yoki nuqsonli shaxslar sifatida emas, balki jamiyatda chuqur ildiz otgan tizimli buzulish ramzi sifatida tasvirlanadi. Ularning harakati individual illatdan ko'ra butun jamiyat tuzilishidagi nosozlik va adolatsizlikning oqibati sifatida namoyon bo'ladi. Mansabdorlar o'z vazifasini halollik bilan emas, manfaat evaziga bajarishi jamiyatni tanazzulga olib borayotgan bosh omillardan biri sifatida ko'rsatiladi. Asarda "*Falanchiga pora deb bersang tirik kirpini teskari yutadi*", degan iborani yozuvchi bugungi jamiyatimizdagi mansab uchun qabihliklarga qo'l urisgga, nohaqliklarga ko'z yumushga tayyor, boylik orttirish yo'lida har qanday pastkashlikdan tap tortmaydigan kimsalarning asl mohiyatini ochib berish uchun qo'llaydi. Bundan tashqari, adib yordamchi obrazlar orqali jamiyatning umumiy qarashlarini ham yoritadi. Pora berishni "o'z holicha odatiy" hol sifatida qabul qilgan odamlar, bunga befarq qaraganlar – bularning bari ijtimoiy muammolarning ildizi chuqurlashganini ko'rsatadi.

Hikoyaning asosiy ziddiyati – halollik va poraxo'rlikning to'qnashuvidir. Oddiy odamning haq ishini hal qilish uchun mablag' talab qilinishi jamiyatdagi adolatsizlikning eng qora bo'yoqlarda tasvirlanishidir. Yozuvchi bu to'qnashuvni qiziqarli, keskin va hayotiy vaziyatlar orqali beradi. Ziddiyatning chuqurligi shundaki, hikoyadagi voqealar katta tragediya sifatida emas, go'yoki hayotdagi oddiy hol sifatida ko'rsatiladi. Aslida esa bu holat jamiyatning axloqiy tanazzulga duch kelganining eng og'ir ko'rsatkichidir. "Pora" hikoyasi o'z yozilgan davridan ancha o'tgan bo'lsa-da, undagi muammolar hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Asarda pora olish va berishning oqibatlari, uning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri yuksak mahorat bilan ochib berilgan. Yozuvchi poraxo'rlik nafaqat qonunni buzishi, balki inson vijdoniga, halolligiga, jamiyatning ma'naviy poydevoriga zarar yetkazishini ko'rsatadi. Bugungi kunda ham korrupsiyaga qarshi kurash davlat va jamiyatning ustuvor vazifalaridan biridir.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Abdulla Qahhorning "Pora" hikoyasida adolatsizlikning eng oddiy ko'rinishidan tortib, uning jamiyat hayotiga ta'sirigacha bo'lgan jarayonlar chuqur badiiy tahlil qilingan. Hikoya o'z dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydi, chunki u har qanday davr va makondagi korrupsiya degan umuminsoniy illatga qarshi yozilgan mustahkam adabiy qo'rg'ondir. Asar o'quvchini halollikka, adolatga, vijdon pokligiga chorlaydi. Yozuvchi jamiyatning chin ma'noda rivojlanishi uchun poraxo'rlik kabi illatlardan xoli bo'lish zarurligini uqtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor Tanlangan asarlar. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyoti. 1985.
2. Rasulov R. Abdulla Qahhorning badiiy mahorati haqida tadqiqotlar. – Toshkent: Fan.1982.
3. Yoʻldoshev Q. Oʻzbek realizmi va satira anʻanalari. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2007.
4. Kholbekovna, F. O. (2021). The issue of artistic idea in poetry. *European Scholar Journal*, 2(4), 233-236.
5. Fayzullayeva, O. (2022). General Typological Characteristics Of Lyric Cycles. *Science and innovation*, 1(B5), 231-236.
6. Fayzullayeva, O. (2024). THE ISSUE OF FORM AND CONTENT IN LYRIC CYCLES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 55-60.
7. Xolbekovna, F. O. (2021). POETICS OF UZBEK CYCLE SONNETS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 394-402.
8. Fayzullayeva, O. X. (2020). Diversity in writing Uzbek sonnets. *Theoretical & Applied Science*,(4), 627-633.
9. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 332-340.
10. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(6 Part 3), 118-125.